

## O'SMIRLAR XULQ-ATVORIDA ALTRUIZM RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna

Termiz davlat universiteti II-bosqich magestranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7438415>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'smirlik yoshida shaxsning xulq-atvoridagi axloqiy altruizm xususiyatlarini tarkib toptirish va psixologik rivojlantirishda ta'lim-tarbiyani uzviy ravshda olib borish va ularni turmushga tadbiq etish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** o'smir, altruizm, fidoyilik, do'stlik, motiv, hissiyotlar, jamoa, yuksak ma'naviyat, qadryatlar.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ АЛЬТРУИЗМА В ПОВЕДЕНИИ ПОДРОСТКОВ

**Аннотация.** В данной статье высказывается мнение о формировании характеристик нравственного альтруизма в поведении человека в подростковом возрасте и психологическом развитии образования и воспитания в органической форме и применении их к браку.

**Ключевые слова:** подросток, альтруизм, самоотверженность, дружба, мотив, эмоции, коллектив, высокая духовность, ценности.

## PSYCHOLGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF ALTUISM IN THE BEHAVIOR OF ADOLESCENTS

**Abstract.** This article expresses an opinion on the formation of the characteristics of moral altruism in human behavior in adolescence and the psychological development of education and upbringing in an organic form and their application to marriage.

**Keywords:** teenager, altruism, dedicftion, friendship, motive, emotions, team, high spirituality, values.

O'smirlik inson shaxsining kamol topishida alohida o'rin egallaydi. U inson kamolotining muhim bosqichi sanaladi. Bu davrda dunyoqarash, e'tiqod, nuqtai nazar, o'zligini anglash va baholash kabi xususiyatlar shakllanadi.

O'smirlarda umuminsoniy xislatlarni shakllantirish jarayonida ta'lim-tarbiya, atrof-muhit va ishtimoiy xodisalarining o'rni katta ahamiyatga ega. Chunki bu davrda o'smirlarda muayyan xodisa va narsalarga munosabat shakllangan bo'lishini inobatga olgan holda shuni ta'kidlash joizki, o'smir shaxsining tarkib topishida axloqiy tushunchalar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'smirlarda axloqiy tushunchalarni rivojlantirish va uni turmushga tadbiq etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'zlashtirish bugungi kunning dolzarb masalalridan biri bo'lib turidi. "Qalb ko'zining nuri oshganida narsalarni ko'rishing va bilishing ham ortadi" Ana shunday o'smir xulq-atvoridagi axloqiy xususiyatlardan biri altruizm tushunchasi hisoblanadi.

"Altruizm" tushunchasi fransuzcha so'zidan olingan bo'lib, uning negizida boshqa kishilarga xolis hizmat qilish, ularning baxt-saodati uchun o'zining shaxsiy manfaatlarini qurban qilish tushunchasi yotadi. Altruizm tushunchasini fransuz faylasufi va sotsiologiya asoschisi Ogyust Kont tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, insonning boshqa odamlar manfaati uchun harakatga olib keladigan manfaatsiz motivlarini tavsiflab o'tgan.

O'smirlarda altruizmning dastlabki ko'rinishi o'rtoqlik va do'stlik tuyg'ularida, ular bilan o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi. Do'stlik umumiy faoliyat, havas va intilishlar, e'tiqodlarda tarkib topadi. Rus psixologlari V.A.Krutestkiy va N.S. Lukining fikricha "haqiqiy o'rtoqlik va chinakam do'stlik -mardonavor o'rtoqlik va talabchang do'stlikdir". Yani bunday o'rtoqlik va do'stlik amaliy yordamni taqozo etadi deyiladi. Ularda do'stiga bo'lgan mehribonlik, g'amxo'rlik, homiylik kabi axloqiy tushunchalarning yuqori bo'lganligi sababli, bir-biri uchun qo'lidan kelgan yordamini ayamaydi.

O'smirlarda altruizmning ifodasini sinf jamoasi hayotida ham ko'rish mumkin. Bunda sinf jamoasi a'zolarining o'zaro yordam, birdamlik, hamdardlik kabi ijobjiy hislatlarida gavdalanadi. Bu jarayonda shaxsning guruhdagi shaxslararo munosabatlarida guruh uchun fidoiylik munosabati shakllanadi. Masalan, maktabda tengdoshlari orasida o'tkazilgan guruhiy musabaqalarda, guruh obro'si va uning a'azolari uchun chin dildan kurash olib borib, "jon" ni fido qilishda mardlik tushunchasi yotadi va jamoaviy g'oyalarning kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Maktabda o'qiyotgan har bir bola o'z ma'naviy burchini va o'zining ijtimoiy vazifasini bajaryotganini his qilib, mamnun bo'ladi.

Mamlakatimiz prizenti Sh. Mirziyoyevning "Maktablarda 5-sinfdan boshlab yagona sinf rahbarni tayinlash amalyoti yo'lga qo'yilsa, bu bolalarning ma'naviy rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ana shu o'qituvchi 11-sinfga qadar bolalar bilan ruhan yaqin bo'lib, ularning ma'naviy tayanchi va maslahatchisiga aylanib, ota-onasidek qadrdon bo'lib qolardi" degan fikrlari negizida o'smir yoshidagi o'quvchilarda ezgulik, mehr-shavqat, insoniylik kabi ezgu fazilatlar shakllanishida asos bo'lib hizmat qiladi.

O'smirlarda altruizm yani fidoyilik tuyg'usini rivojlantirishda ta'lim va tarbiya jarayonining o'rni beqiyos. Bunda xalqimizning o'chmas qadryatlari, boy ma'naviy meroslari hamda buyuk ajdodlarimizning tarixda qoldirgan nodir sifatlarini namuna sifatida o'rganib borish ijobjiy samara beradi. Jumladan, xalq farovonligi uchun jonne fido qilgan Shiroq afsonasi, ma'rifat yo'lida qurbon bo'lgan Fitrat, Cho'lpon kabi buyuk mutafakkirlarimizning bugungi kun yoshlari uchun haqiqiy altruizm sifati nomoyondalari bo'lib turgani, o'smir yoshlar xulq-atvorida axloqiy mezonlar shakllanishida asos bo'lishiga biz ishonamiz! Zero, odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, iymon-e'tiqotli farzand nafaqat ota-onaning balki butun jamiyatning eng kata boyligidir.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir.T-2021
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch T- 2011., 56-57
3. G'oziyev E. G' Yosh davrlar psixologiyasi T-1994
4. G'oziyev E. G' Umumiy psixologiya darslik T-2002
5. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya T-2012
6. Davletshin M. G va boshqalar Yosh davrlar va pedagogik psixologiya o'quv metodik qo'llanma. T-2004
7. A.B.Qodirova "Oqillar va aldanganlar" maqolasi -Sciene and innavation international journal -2022.3- son
8. Abu Nasr Farobiy Fozil odamlar shahri T-2016 ., 286-292
9. Muxina V.S. Психология дошкол'ника. М.,1975.
10. Kruteskiy V.A. Психология обучения и воспитания школьников. М., 1976.
11. Лейтес Н.С. Умственные способности и возраст. М., 1971.
12. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.,1975.